

Kafedra nomi: Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrası

Katta O`qituvchisi Rasulova Dilbar Rasulovna

1. Xalqaro grant loyihasi, 2022-2023 o`yuv yili davomida
2. Davlat granti asosida loyiha, 2022-2023 o`yuv yili davomida
3. Srtartap loyihalar, 2022-2023 o`yuv yili davomida
4. Xojalik shartnoma, 2022-2023 o`yuv yili davomida

300 000 (uch yuz ming so`m)

Kafedra mudiri:

B.Xudoyqulov

O`qituvchi:

D.Rasulova

[illegible]

INNOVATSION-XO'JALIK SHARTNOMASI

52/3 -sonli

Denov tuman.

2023-yil « 10 » noyabr

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (bundan keyin matnda «Institut» deb yuritiladi) nomidan **Raximov** va **G'anisher Xudoyqulovich** nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va « 33 - maktab » bundan buyon «Korxona» (tashkilot, muassasa) deb ataluvchi, rahbari **M. Koltorayev** Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida kelishuvlarga erishdilar:

1. Shartnomaning predmeti

1.1. Tomonlar o'rtasida ta'lim xizmatlari (konferensiyalar, ilmiy seminarlar, psixologik testlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy maslahatlar berish, faoliyatga oid seminar va treninglar), ilmiy ishlanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalar, patent, foydali modellarni joriy qilish (ularni vaqtinchalik foydalanishga berish) moliyaviy munosabatlar orqali o'zaro almashish mazkur shartnomaning predmeti sifatida belgilanadi.

2. Shartnomaning maqsadi

2.1. Tomonlar o'zaro kelishuvga muvofiq korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-innovatsion jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhit mazmunini oshiradigan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar, viloyat va shahar DXX, sud, prokuratura, ichki ishlar organlarining tergov harakatlarida tarjimonlik qilish, tashkilotning boshqaruv xujjatlarini, adabiyotlarini va manbalarini tarjima qilish konsalting xizmatlari, marketing xizmatlari, ta'lim xizmatlari, sinov tajribalar o'tkazish, dorivor o'simliklar yetishtirish va ularni terish bo'yicha tavsiyalar berish, ko'chat yetishtirish va ekish bo'yicha tavsiyalar berish, o'simlik urug'larini terish bo'yicha ko'rsatmalar berish, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga innovatsiyalarni joriy etishda zamonaviy innovatsion ishlanmalarni tavsiya qilish shartnomaning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi.

2.2. Tomonlarning ko'p qirrali hamkorligi uzoq muddatli sherikchilik, tenglik va samaradorlik, o'zaro manfaatli shartnomalar tuzish tamoyillariga asoslanadi.

3. Tomonlarning majburiyatlari

3.1. Mazkur shartnoma doirasida «Institut» quyidagilarni kafolatlaydi:

- a) korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhitni mazmunini oshiradigan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar (adabiyotlar, manbalar) hamda ta'lim xizmatlari ko'rsatishni o'z vaqtida ta'minlash (yetkazib berish);
- b) innovatsion mahsulotni yaratish va tatbiq etish bo'yicha birgalikda faoliyat yuritish hamda muammoli mavzular bo'yicha tadqiqot olib borish uchun innovatsion guruhlarini shakllantirish;
- v) institut magistrantlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va pedagog xodimlarini Korxonaga stajirovkaga yuborish;
- d) institutda korxona xodimlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun sharoit yaratish, korxona hodimlariga universitetning o'quv auditoriyalari, axborot-resurs markazidan foydalanishini ta'minlash;
- e) korxona bilan hamkorlikda institutning pedagog xodimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va talabalari ishtirokida qo'shma seminarlar, anjumanlar, konferensiyalar, davra suhbatlarini tashkil etish.

3.2. Mazkur shartnoma doirasida korxona quyidagilarni kafolatlaydi:

- a) institut tomonidan korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhitni mazmunini oshiradigan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar (adabiyotlar, manbalar) hamda ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun kelishilgan haq so'mmasining 15 % ni oldindan va xizmatlar bajarilgandan keyin 85 % to'lovi o'z vaqtida institut hisob raqamiga o'tkazib berish;
- b) korxonada innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun universitet pedagog xodimlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish va hamkorlikda innovatsion guruhlar shakllantirish;
- v) korxona tomonidan o'tkaziladigan ilmiy-amaliy seminar va treninglarga institutning pedagog xodimlari va katta ilmiy xodim-izlanuvchilarini jalb etish;